



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING
BUYRUG‘I

2024 - yil « 29 » aprel 136 -son

Toshkent shahri

**Oliy ta’lim muassasalari talabalari
mustaqil ta’limini tashkil etish
bo’yicha namunaviy tartibni
tasdiqlash to’g’risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim sohasidagi islohotlarini jadallashtirish bo’yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” 2024-yil 5-fevraldagi PQ–54-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash hamda oliy ta’lim muassasalarida talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida

BUYURAMAN:

1. Oliy ta’lim muassasalarida talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish namunaviy tartibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Oliy ta’lim muassasalari rektorlari (direktorlari)ga:

bir oy muddatda kadrlar tayyorlash ta’lim sohasidagi fanlar xususiyatidan kelib chiqqan holda mazkur buyruq ilovasi bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish namunaviy tartibi”ga muvofiq oliy ta’lim muassasasi uchun “Talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish tartibi”ni ishlab chiqish va tasdiqlash;

2024/2025 o‘quv yili uchun ishlab chiqiladigan fanlarning o‘quv dasturlarida mustaqil ta’limni tashkil etishning yagona “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish namunaviy tartibi” mezonlarini hisobga olish vazifasi yuklansin.

3. Mazkur buyruq ijrosining nazorati vazirning birinchi o‘rinbosari Sh. Daliyev zimmasiga yuklansin.

Vazir



K.Sharipov

NUSXA
ASLIGA TO‘G‘RI

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil " 24 " -apreldagi 36-son buyrug'i
ilova



O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Oliy ta'lim muassasalari talabalari
mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha
NAMUNAVIY TARTIB

Toshkent – 2024

Oliy ta'lim muassasalari talabalari mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha NAMUNAVIY TARTIB

I. Umumiy qoidalar

1. Oliy ta'lim muassasalari talabalari mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha namunaviy tartib (keyingi o'rinlarda – Namunaviy tartib) oliy ta'lim muassasalarida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish qoidalarini belgilaydi.

2. **Mustaqil ta'lim** – o'quv jarayonining ajralmas qismi bo'lib, talabaning muayyan fanga oid xususiy kompetensiyalarni egallash va rivojlantirish, mustaqil fikrlash, masala va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va yechimini izlash, uni taqdim etish ko'nikmalarini egallash hamda auditoriyada olingan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash, qo'shimcha ma'lumot va materiallarni mustaqil o'rganishga qaratilgan muhim o'qitish shakli.

3. Oliy ta'limning bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari o'quv rejalariga kiritilgan har bir fan (modul)ni o'zlashtirish auditoriya mashg'ulotlari (kontakt mashg'ulotlar) va mustaqil mashg'ulotlar (mustaqil ta'lim) majmuasi uyg'unligida amalga oshiriladi.

4. Mustaqil ta'lim yuklamasi bakalavriat ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi o'quv rejasida muayyan fanni o'zlashtirish uchun belgilangan o'quv yuklamaning bir qismi sifatida belgilanadi.

5. Mustaqil ta'limi auditoriyadan tashqarida bevosita talabaning fan (modul) bo'yicha mavzularni mustaqil hamda o'qituvchi rahbarligida o'qib-o'rganishi tarzida amalga oshiradigan topshiriqlar majmuini anglatadi.

6. Mustaqil ta'limga oid professor-o'qituvchilarning akademik yuklamasi mavzu va topshiriqlarni ishlab chiqish, topshiriqlarni bajarish yuzasidan uslubiy ko'rsatmalar, tushuntirish va maslahatlar (konsultatsiyalar) berish, topshiriqlarni tekshirish (taqdimotni tinglash) va baholash hamda shu kabi boshqa pedagogik faoliyatdan tashkil topadi. Mustaqil ta'limga oid professor-o'qituvchilarning akademik yuklamasi joriy o'quv yilidagi yuklamasining "O'quv ishlari" qismiga kiritiladi.

II. Mustaqil ta'limni tashkil etishning maqsad va vazifalari

7. Mustaqil ta'limini tashkil etishdan asosiy **maqsad** fan (modul) bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, boyitish, amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish axborotlar bilan ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish, fan professor-o'qituvchilari bilan verbal va noverbal holatda ishlash orqali kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir.

8. Mustaqil ta'limini tashkil etish quyidagi **vazifalarni** muvaffaqiyatli hal etishga xizmat qilishi lozim:

talabalarda o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil bilim olish va innovatsion faoliyatni shakllantirishga imkon beruvchi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga erishish;

muayyan sohaga oid masala va muammoli vaziyatni chuqur tahlil qilish hamda uni hal etishning maqbul yo'llarini izlab topishga qodir yetuk mutaxassisni tarbiyalash;

talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish;

talabalarda umummadaniy va kasbiy kompetensiyalar, mustaqil faoliyat yuritish va kreativ fikrlash ko'nikmalari rivojlanishini ta'minlash.

III. Mustaqil ta'limni tashkil etish jarayonini boshqarish

9. Dekanat (registrator ofis) tomonidan talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishda quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim:

mustaqil ta'lim topshiriqlarining bajarilishini elektron tizim orqali monitoring qilish va monitoring natijalarini fakultet Kengashida tanqidiy ruhda tahlil qilib borish;

ta'lim yo'nalishlari (mutaxassisliklar)dan kelib chiqib mustaqil ta'limni amalga oshirish holatini muntazam o'rganib borish, tahlil qilish, zarur hollarda talabalar o'rtasida onlayn so'rovnomalar o'tkazish hamda kamchiliklar aniqlangan taqdirda ularni bartaraf qilish yuzasidan tezkor choralar ko'rish.

10. Kafedra mudiri tomonidan mustaqil ta'limni tashkil etishda quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim:

fanlar kesimida mustaqil ta'lim topshiriqlari uchun uslubiy ko'rsatmalar, yo'riqnomalar tayyorlanishi va doimiy yangilanib borilishini ta'minlash;

har bir fan bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlari talabani fikrlash, izlash, tahlil qilish, adabiyotlar va manbalar bilan ishlash, yechim topish, o'zlashtirish, kompetensiya va ko'nikmalarni egallashga qaratilgan bo'lishi, jumladan, aniq yechimni nazarda tutuvchi masala; keng tahlil, ta'rif va xulosalarni talab qiluvchi muammo; chuqur o'zlashtirish va yuqori darajada taqdim qilishni taqozo etuvchi mavzu hamda shu kabi boshqa topshiriqlar berilishini ta'minlash va buni nazorat qilish;

kafedra mas'ulligidagi fanlardan mustaqil ta'lim topshiriqlari talablarga muvofiq va aniq bajarilishini nazorat qiladi hamda topshiriqlar bajarilishi va natijalari yuzasidan professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi nizolar chiqishini oldini olish hamda moderatsiya texnologiyasini qo'llash.

IV. Mustaqil ta'limni tashkil etishda professor-o'qituvchilar va talabalarning vazifa va majburiyatlari

11. Mustaqil ta'limni tashkil etishda professor-o'qituvchilar quyidagi **vazifa va majburiyatlarni** amalga oshirishi lozim:

mustaqil ta'lim topshiriqlari talabani aqliy rivojlanishi (tahlil, sintez, taqqoslash, solishtirish, umumlashtirish)ni nazarda tutib uni fikrlash, izlash, tahlil qilish, adabiyotlar va manbalar bilan ishlash, yechim topish, o'zlashtirish, kompetensiya va ko'nikmalarni egallashga qaratilgan bo'lishini, jumladan, aniq yechimni nazarda tutuvchi masala; keng tahlil, ta'rif va xulosalarni talab qiluvchi muammo; chuqur o'zlashtirish va yuqori darajada taqdim qilishni taqozo etuvchi mavzu hamda shu kabi boshqa topshiriqlar berilishini ta'minlash;

talabalarning tanqidiy fikrlash, adabiyotlar bilan ishlash, kutubxona va onlayn qidiruv tizimlaridan samarali foydalanish, adabiyotlar ro'yxatini tuzish, adabiyotlardan iqtiboslar va havolalar keltirish, muammolarga yechim topish, vaqtni boshqarish, o'z-o'zini baholash, SMART maqsadlar qo'ya bilish, fikrlash kabi ko'nikmalarni rivojlantirishni fan va modullari mazmuniga singdirish;

sillabusda dars (auditoriya) mashg'ulotlari (ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya)da mustaqil mashg'ulotlar uchun tavsiya etilgan mavzularni o'zlashtirish va mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish tartibi, baholash mezonlari va muddati, maslahat olish uchun aloqa (kontakt) soatini ko'rsatib qo'yishi;

muayyan fan doirasida mustaqil ta'limni amalga oshirishga xizmat qiluvchi uslubiy ko'rsatmalar tayyorlashi va talabaga semestr avvalida taqdim etishi, elektron ta'lim platformasi (HEMIS)ga joylashtirishi shart;

darsliklarni tahlil qilishlari, qo'shimcha materiallarga e'tibor berishlari;

fan xususiyatidan kelib chiqib, oraliq va yakuniy nazorat savollarining kamida 50 foiz qismi mustaqil o'qib o'rganish uchun tavsiya etilgan mavzu/topshiriqlar yuzasidan bo'lishini ta'minlash;

professor-o'qituvchilar sillabusda hamda elektron ta'lim platformasi (HEMIS)da belgilangan vaqtda mustaqil ta'lim topshiriqlari bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, maslahat va amaliy tavsiyalar berib borishi;

talaba(lar) tomonidan bajarilgan va topshirilgan mustaqil ta'lim mavzu/topshiriqlarini elektron ta'lim platformasi (HEMIS)da o'z muddatida baholab borish.

12. Mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda **talabalar** quyidagi **vazifa** va **majburiyatlarni** amalga oshirishi lozim:

o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlash;

ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, vaqtdan unumli foydalanish;

fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;

mustaqil ta'limni topshirish muddati o'tgach vazifalar qabul qilinmasligi;

mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi;

kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishi.

V. Mustaqil ta'lim topshiriqlarining shakli va hajmi

13. Talabalar mustaqil ta'lim topshiriqlarining shakli va hajmini belgilashda quyidagi jihatlar e'tiborga olinishi lozim:

o'qish bosqichi va ta'lim shakli;

muayyan fanning o'ziga xos xususiyati va o'zlashtirishdagi murakkablik darajasi;

fanning axborot manbalari bilan ta'minlanganlik darajasi;

Mustaqil ta'lim uchun beriladigan topshiriqlarning shakli, mazmuni, hajmi, murakkablik darajasi "izchillik", "soddadan murakkabga" tamoyillariga muvofiq berilishi lozim.

14. Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;

hisoblash-chizma mustaqil ishini bajarish;

badiiy-ijodiy ishni bajarish;

kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;

aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;

berilgan masalaga aniq yechim topish va uni tahlil etish;

berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;

berilgan mavzuni chuqur o'rganish va yuqori darajada tahlil qilish;

tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish;

hisob-grafik-loyihalash ishlanmalarini tayyorlash;

amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;

ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash;

amaliy mazmundagi nostandart masalalarni yechish va ijodiy ishlash.

15. Fan xususiyatidan kelib chiqqan holda talabalarga mustaqil ta'lim topshirig'i shakllari, shuningdek topshiriqlarning o'quv yuklamasi (talabaniing vaqt me'yoriga ko'ra) fan sillabusida aniq belgilanadi. Topshiriqlar puxta ishlab chiqilgan va ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

16. Mustaqil ta'limni samarali tashkil etishda kafedra mudiri va fan o'qituvchilaridan:

o'quv dasturi (sillabus)da mustaqil ta'lim topshiriqlarini aniq belgilash (bunda ishchi mavzular berilishi taqiqlanadi);

tizimli yondashish;

barcha bosqichlarini muvofiqlashtirish va uzviyligini ta'minlash;

bajarilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish;
guruh bo'lib ishlashga alohida e'tibor qaratish;
tashkil etish va nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirib borish talab etiladi.

VI. Mustaqil ta'limni baholash

17. Mustaqil ta'limni baholash berilgan topshiriqlar shakli va hajmidan kelib chiqib amalga oshiriladi.

18. Mustaqil ta'lim bo'yicha talabalar bilimi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarda baholab boriladi.

19. Mustaqil ta'lim bo'yicha talabalar tomonidan bajarilgan topshiriqni baholash tartibi o'quv dasturi (sillabus)da ko'rsatib o'tiladi.

VII. Yakunlovchi qoidalar

20. Mazkur tartib asosida oliy ta'lim muassasasi tartib ishlab chiqadi va Kengash qarori bilan tasdiqlaydi.

21. Mazkur Namunaviy tartib tayanch xarakterga ega bo'lib, har bir ta'lim yo'nalishi va mutaxassislik, fan (modul)ning xususiyatidan kelib chiqib amaldagi qonunchilik hujjatlariga asoslangan holda ushbu tartibga ayrim o'zgartirishlar kiritib borilishi mumkin.